

Anjiman Kal

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadimgi rivoyatlarga qaraganda, qipchoqlik boylardan birining eshigida yurgan Anjiman kal degan bir odam bor ekan. Haligi kal boyning podasini boqar ekan, chig‘irig‘ini qo‘shar ekan, yerlarini sug‘orar ekan. Kunlardan bir kun yov bosib kelibdi. Anjiman kal shu vaqtda chig‘irig‘ini qo‘shib suv chiqarayotgan ekan. Birdan qarasa, changi osmonga ko‘tarilib kelayotgan son-sanoqsiz yovga ko‘zi tushibdi.

Shunda Anjiman: «Yurtga xabar qilish kerak», - deb chig‘irig‘iga qo‘shilgan otni bo‘shatib olib minibdi. Bolasini sog‘inib, entikib turgan baytal hech narsaga qaramasdan, kalni opqochib ketibdi. Otga minib ko‘rmagan kal nima qilishini bilmay, shu yerdagi bir tol osilib qolibdi. Bu sovutning tagi churuk ekan, ildizi bilan qo‘porilib ketibdi. Kal qo‘rqqanidan sovutni tashlashni ham esidan chiqarib, bir qo‘li bilan Baytalning bo‘ynini quchoqlab, ketaveribdi. Endi qal‘aga hujum qilaman, deb turgan yovning yuragiga vahima tushibdi. Shunda yovning lashkarboshisi: «Bu qanday ofat edi, bir qo‘li bilan shunday daraxtni tomir-pomiri bilan sug‘urib oldi, bizlarni ham so‘zsiz qirib tashlaydi», — debdi. Shundan keyin, askarlarini orqaga qaytaribdi. Buni ko‘rgan xaloyiq kalga ofarinlar o‘qibdi. O‘sha kundan boshlab odamlar Anjiman kal demasdan, Botir kal deydi bo‘libdi. O‘sha zamondan beri bu maydonni Botir kal maydoni deb ataydilar.

“Oqila qiz” kitobidan